ERKIN VOHIDOV ASARLARIDA KELTIRILGAN RANGLARNING KONNOTATIV TAHLILI

Qo‘qon davlat universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
1-kurs magistranti Sotvoldiyeva Go‘zalxon
sotvoldiyevagozalxon98@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandasi, buyuk shoir Erkin Vohidovning ijodida ranglarning badiiy va konnotativ ahamiyati tahlil qilinadi. Ranglar Erkin Vohidov she’riyatida nafaqat estetik bezak vositasi sifatida, balki inson ruhiyati, his-tuyg‘ulari va hayotiy tajribalarni ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Maqolada oq, qizil, moviy, yashil va qora ranglarning shoir asarlaridagi ramziy va metaforik ma’nolari, ularning turli she’riy kontekstlarda ifodalanish xususiyatlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: lingvopoetik tahlil, ranglar semantikasi, konnotativ ma’no, badiiy metafora, poetik ifoda, ramziy vositalar, ruhiy holat, ramziy funksiyalari, tabiat tasvirlari, insoniy his-tuyg‘ular, badiiy tafakkur.

Kirish

O‘zbek she’riyatida ranglar obrazining shakllanishida Alisher Navoiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi kabi ijodkorlarning hissasi beqiyosdir. Ayniqsa, Erkin Vohidov ijodida ranglar nafaqat tabiat unsuri, balki milliy ruh, orzu, muhabbat, vatanparvarlik va inson qalbining yangilanishi timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir asarlarida oq, ko‘k, yashil, qizil kabi ranglar hayot falsafasi bilan uyg‘unlashgan holda, milliy badiiy tafakkurning ifodachisiga aylanadi.

Bugungi globallashuv davrida milliy adabiyotimizni yangi nuqtai nazardan tahlil qilish, xususan, undagi ranglar semantikasi va ularning konnotativ ma’nolarini

aniqlash — zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Erkin Vohidov – XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandasi bo‘lib, uning she’riyatida badiiy tafakkur, insoniy qadriyatlar va milliy ruhiyat o‘ziga xos ifodalangan. Shoirning ijodiy olami nafaqat mazmuniy boylik, balki obrazlar va ramziy vositalar orqali boyitilgan. Ranglar esa Erkin Vohidov she’riyatida muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi, ular o‘quvchiga shoirning ichki dunyosini, ruhiy holatini va tabiat bilan insoniy uyg‘unligini anglash imkonini beradi.

Ushbu maqolada Erkin Vohidov asarlarida ranglar obrazining konnotativ tahlili amalga oshiriladi. Konnotatsiya bu (lot. connotatio – qo'shimcha ma'no) — so'zning lug'aviy (to'g'ri) ma'nosiga qo'shimcha ravishda yuklanadigan hissiy-ekspressiv, uslubiy va ramziy ma'no. Maqolada ranglarning she’riy kontekstdagi metaforik va ramziy funksiyalari, ularning inson ruhiyatini ifodalashdagi o‘rni va shoirning badiiy tafakkurini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shu bilan birga, maqola o‘quvchiga ranglar orqali shoirning estetik va falsafiy dunyoqarashini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metod

O‘zbek tilshunosligi, xususan, o‘zbek leksikologiyasi sohasida keyingi yillarda bir necha tadqiqotlar bajarilib, jiddiy yutuqlarni qo‘lga kiritdi. O‘zbek tili lug‘at boyligini ilmiy tadqiq etishda Sh.Rahmatullayev, I.Qo‘chqortoyev, H.Ne’matov, R.Rasulov, E.Begmatov, H.Jamolxonov, B.Jo‘rayev, O.Bozorov, M.S. Sodiqova, O. Usmonov, R.Jumaniyozov kabi tadqiqotchilarning nomi bilan bog‘lash o‘rinlidir.

Olimlar Navoiy asarlarida ranglarning konnotativ funksiyasini alohida tahlil qilgan. Masalan, Saidov (2015) yozishicha: “Navoiy qissalarida ranglar ko‘pincha insonning ichki tuyg‘ulari, ruhiy holati va falsafiy g‘oyalarini ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Qizil rang muhabbat va ehtiros ramzi bo‘lsa, oq rang poklik va ilohiylikni bildiradi”.

Shuningdek, olimlar ta’kidlaydiki, Navoiy mumtoz poetikasida ranglar faqat vizual tasvir bo‘lib qolmay, ular obrazlarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Masalan, “Yusuf va Zulayho” qissasida Zulayho ko‘ylagidagi qizil rang uning ichki tuyg‘ularining olovi va muhabbatning shiddatini konnotatsiyalaydi.

Erkin Vohidov va zamonaviy o‘zbek adabiyotida ranglar manba: Vohidov, E. (2000). She’riyat to‘plami. Toshkent: Sharq.

Tursunov, S. (2018). Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ranglar semantikasining konnotativ tahlili. Toshkent:

Olim Tursunov (2018) shunday yozadi: “Erkin Vohidov asarlarida ranglar metafora va simvol sifatida ishlatiladi. Masalan, ko‘k rang erkinlik, umid va tinchlikni ifodalaydi. Sariq rang esa nostalji va o‘tgan davr xotiralarini anglatadi, ba’zan esa xavotir yoki og‘riq bilan bog‘lanadi”.

Shu bilan birga, olim ta’kidlaydiki, zamonaviy o‘zbek she’riyatida ranglar yordamida o‘quvchi shoirning ichki dunyosini, ruhiy holatini va obrazlararo munosabatni chuqurroq anglaydi.

Ranglarning umumiy konnotativ tahlili. Manba: Eco, U. (1976). A Theory of Semiotics. Bloomington: Indiana University Press.

Eco (1976) yozganidek: “Ranglar semiotik tizimda ijtimoiy va madaniy kontekstga ko‘ra ma’nolashadi. Bir rangning mazmuni o‘quvchida faqat vizual taassurot tug‘dirmaydi, balki ma’naviy va hissiy qatlamlarni ham shakllantiradi”.

Barthes (1977) esa ta’kidlaydiki: “Adabiyotda ranglar simvolik vosita sifatida ishlatilganda, ular matnga qo‘shimcha ma’no qatlamini qo‘shadi va obrazlarni tushunishni boyitadi”.

Muhokama

Shuni alohida ta‘kidlashni istardikki, o'zbek tilida rang-tus bildiruvchi sifatlar miqdori, turli ko'chimlar orqali paydo bo’lganlari, dialektal variantlari bilan qo'shib hisoblanganda. yuzdan oshib ketadi. Bularning bir qismi tub sifatlar bo'lsa (oq, qizil,

pushti, sariq , qora), yana bir qismi narsaning rangiga qarab morfologik usulda yasalgan (sandaliy, osmoniy, gulnoriy, pistoqi) sifatlardir.

Mumtoz adabiyotda (masalan, Navoiy ijodida) ranglar ko‘pincha obrazlar va syujetga bog‘liq falsafiy va hissiy ma’nolarni uzatadi. Masalan, qizil rangni muhabbat ramzi sifatida ishlatish.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida (masalan, Vohidov asarlarida) ranglar metafora va simvol sifatida ishlatiladi va ular shoirning ichki dunyosini, xotira va nostaljini ifodalashda muhim vositaga aylanadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, zamonaviy adabiyot ranglarni yanada psixologik va hissiy nuqtai nazardan tahlil qilishga imkon beradi, bu esa o‘quvchida shaxsiy his-tuyg‘ular bilan bog‘lanishni kuchaytiradi.

Bir so‘z bir necha ma’noda qo‘llanishi mumkin, bu ma’nolardan bittasi (birinchisi) so‘zning asl lug‘aviy ma’nosi bo‘lsa, qolganlari ko‘chma yoki qo‘shimcha ma’nolaridir, bunday hol barcha tillarga ham xos.So‘zning ma’nolari haqida gapirganda R. Yakobson quyidagi terminlardan foydalanadi. Masalan: «Основное значение»(asosiy ma’no) va «Частные значения» (xususiy ma’nolar) Bularning ichidan yana «Главное значение» (bosh ma’no) termini ostida so‘z ma’nolarini ajratadi. 1935-yildan boshlab muallif «Первичная» и «Вторичная» семантическая функция”(Birlamchi va ikkilamchi semantik funksiya) atamalariga oid guruhlarni kiritadi. Ba’zan esa so‘z ma’nolarida shunday hodisalar yuz beradi, so‘zlarning asl ma’nolari, keyin paydo bo‘lgan ma’nolari ortida qolib yoki so‘zniig asl ma’nosi zaiflashib ko‘chgan ma’nolar oldingi rejaga o‘tib oladi. Shuni ham aytish mumkinki, so‘zning asl ma’nosi butunlay tugab, faqat keyin paydo bo‘lgan ma’noda iste’mol etila boshlash hodisalari ham uchraydi.

Bu so‘zlarning tilimizda shakllanish tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Bu davr rang anglatuvchi so‘zlarning ilk shaklini va ma’nolarini yetarli darajada

xiralashtirgan, keng plandagi sinxronik va diaxronik ilmiy-lisoniy tadqiqotlargina ularning mohiyatini oydinlashtirishi mumkin. Misollar:

1. Oq – o‘zbek tilida sifat so‘z turkumiga mansub so‘z bo‘lib, deyarli barcha turkiy tillarda fonetik o‘zgarish va semantik siljishlar bilan qo‘llanadi. Masalan, qirimtatar, qorachoy-balqar, qirg‘iz, qozoq, tatar, boshqird, uyg‘ur, lobnor, oltoy va tuva tillarida – a:q/a:g‘; ozarboyjon va turk tillarida – ag‘/a:q; turk tilining ayrim lahjalarida, xakas va qaraim tillarida – ax; faqat o‘zbek tilida oq shaklida qo‘llanadi.

Rang-tus sifatlariga tegishli leksemalarning ongda paradigmatik va sintagmatik munosabat asosida yashashi ham tabiiy hol. Leksema til jamiyati a‘zolari ongida boshqa leksema bilan o'xshashlik qatori (paradigmalar) hosil qilgan holda mavjud bo'ladi. Masalan, "ko‘k " leksemasi bir tomondan "zangor"," yashil"leksemalari bilan, ikkinchi tomondan " pistoqi" , "havorang" so'zlari bilan paradigma hosil qilib yashaydi. Paradigmadagi bir a‘zoning mohiyati unga paradigmadosh boshqa a‘zoning mohiyatiga qiyosan olinadi, leksemasining mohiyatiga qiyosan belgilanadi. Qiyos esa eslatish, eslash, yonma-yon qo'yish munosabatidir. [1]

Natijalar

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Erkin Vohidov o‘z she'rlarida ranglardan poetik uslubda badiiylikka asoslangan holatda qo'llagan. Gapimiz isbotini quyidagi she'ri orqali ko‘ramiz:

Inson o'lmas o’ldirmasa g’am,
Makon qilmas qaro turbatni.
Ko’rsa agar tirigida ham
O’lganida topgan hurmatni.
Olam to’la fitna, adovat,
Mangu qolib netar odamzod?
Bir kun charchab, izlab farog’at

1 Qodirova, M. Rang va ma’no uyg‘unligi o‘zbek lirikasida // Filologiya masalalari, №3, 2018. – B. 45–52.

Tinch dunyoga ketar odamzod.[2]

Ushbu she'rda "Qora" rangni ifodalovchi so‘z "Qaro" tarzida ishlatilgan va bu bilan she'rning badiiyligi boyigan. Bilamizki, she’riyatda qaro rang (ya’ni qora) — ramziy (konnotativ) ma’noda juda chuqur, ko‘p qatlamli badiiy ma’no kasb etadi. U faqat rang sifatida emas, balki ruhiy holat, fojiaviylik, zulmat, dard, g‘am, sir kabi tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Erkin Vohidovning ushbu she’rida ham qorong‘ulik, zulmat ma’nolarida ishlatilgan.

Ranglarning konnotativ ma’nolari Vohidov she’rlarida shoir ruhiyatini, xalqona dunyoqarashni va milliy estetikani yoritishga xizmat qiladi. Masalan, moviy – sokinlik va orzularni, yashil – umid va yangilanishni, qora – iztirob va jiddiylikni ifodalaydi. Shoir rang timsollaridan ramziy semantik qatlam sifatida foydalanadi. Ranglar orqali inson ruhiyatidagi ziddiyatlar, hayotning yorug‘ va qorong‘i tomonlari, sevgi, vatanparvarlik va orzular talqini ifodalanadi.

Konnotativ tahlil natijasi shuni ko‘rsatadiki, ranglar shoir she’riy olamida faqat tashqi bezak emas, balki mazmunni chuqurlashtiruvchi, ruhiy holatni kuchaytiruvchi badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Dada,

U kun sizni tushimda ko‘rdim.

Oq otda keldingiz, So‘radingiz suv.

Men buni ayamga gapirib berdim.

Dadang keladi, deb aytdi, Rostmi shu?.. [3]

2 Vohidov, E. Ruhlar isyoni: She’rlar, dostonlar, dramatik asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.

3 Vohidov, E. Yoshlik devoni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1970.

Erkin Vohidovning "Nido" dostonidan olingan ushbu she'rdagi "Oq" rang orqali urush davridagi bolaning yorug‘ kunlardan umidi borligi va yaxshi kunlar kelishiga ishonayotganligi bitta mana shu rang orqali ochib berilgan.

Xulosa

Erkin Vohidov ijodi o‘zbek adabiyotining eng yorqin sahifalaridan biridir. Uning badiiy olamida ranglar faqat tasviriy vosita emas, balki ma’naviy-estetik timsollar tizimi sifatida xizmat qiladi. Ranglar orqali shoir o‘z his-tuyg‘ularini, hayotiy falsafasini, inson ruhiyatidagi murakkab kechinmalarni, xalqona dunyoqarashni hamda milliy qadriyatlarni teran ifoda etadi.

Ranglarning konnotativ tahlili natijasida aniqlanishicha, Erkin Vohidov ranglarni an’anaviy ramzlar asosida ishlatgan bo‘lsa-da, ularni o‘z poetik uslubi orqali yangi ma’no va hissiy tus bilan boyitgan. Masalan, qizil rang — shoir asarlarida sevgi, vatanparvarlik, hayotiy kuch va g‘ayrat timsolidir; yashil rang — umid, tinchlik, tabiat bilan uyg‘unlik ramzi; moviy rang — orzular, osmoniy poklik va ruhiy osoyishtalik belgisi; sariq rang — hayotiy quvonch va quyosh nurlarining iliqligini ifodalaydi; qora rang esa inson hayotidagi iztirob, g‘am va og‘ir sinovlarning ramzi sifatida talqin etiladi.

Erkin Vohidovning ranglar tizimiga murojaat qilishida milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. U Sharq poetikasidagi an’anaviy timsollarni (masalan, yashil – umid, qizil – muhabbat) o‘z ijodida qayta talqin etib, ularni zamon ruhiga moslashtiradi. Bu holat shoirning badiiy tafakkurining chuqurligi, estetik didi va so‘z ustaligidan dalolat beradi.

Ranglarning konnotativ talqini shuni ko‘rsatadiki, Erkin Vohidov uchun ranglar — bu shunchaki tasviriy bo‘yoqlar emas, balki inson ruhiy olamining metaforik kalitlaridir.[4] U ranglar orqali hayot va o‘lim, sevgi va ayriliq, orzu va haqiqat, quvonch

4 Jo‘rayev, N. Badiiy tafakkur va timsollar poetikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2012.

va iztirob kabi qarama-qarshi tushunchalarni uyg‘un holda ifodalay oladi. Shoir ijodida ranglar poetik semantikaning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ular orqali matnning ichki musiqasi, his-tuyg‘ular ohangi, shoir ruhiyatining rang-barangligi seziladi. Shu bois Erkin Vohidov asarlaridagi ranglarning konnotativ tahlili shoir poetikasining ichki qatlamlarini ochishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov ranglar orqali so‘z san’atining yangi badiiy darajasiga erishgan, o‘zbek adabiyotida rang ramzlarini ma’naviy, falsafiy va milliy mazmun bilan boyitgan ijodkordir. Ranglarning konnotativ tahlili shoirning estetik olamini, uning poetik tafakkuri va milliy ruhini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Vohidov, E. Ruhlar isyoni: She’rlar, dostonlar, dramatik asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.

2. Vohidov, E. Tong nafasi: She’rlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.

3. Vohidov, E. Yoshlik devoni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1970.

4. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliyeva, M. Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.

5. Jo‘rayev, N. Badiiy tafakkur va timsollar poetikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2012.

6. Saidov, A. So‘z va ramz: O‘zbek poeziyasida badiiy timsol. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2008.

7. Karimov, H. O‘zbek poeziyasi va badiiy ranglar tizimi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2014.

8. Qodirova, M. Rang va ma’no uyg‘unligi o‘zbek lirikasida // Filologiya masalalari, №3, 2018. – B. 45–52.

9. Nazarov, B. She’riyat va ma’naviyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005.

10..Apresyan Yu.D. Konnotatsiya kak chast pragmatiki slov. G‘G‘

11. Abdullaev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. T.: Fan, 1983. – B. 88.

12.Abdullaeva Leksicheskaya stilistika uzbekskoy xudojestvennoy literaturo– T.: Fan, 1979. – B. 150

13. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. - T.: Fan, 1981. – B. 59